

# Boborahim Mashrab Merosiga Mutasavvif Allomalarning Korsatgan‘Ta’siri

*Soatov Rasul Muxitdinovich*<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mutafakkir, so‘fiy shoir Mashrab she‘riyatidagi tasavvufiy fikrlar va qarashlar ilgari surilgan. Mashrab she‘rlarida ilohiy ishq, tushunchasining majoziy shaklda ishlatilishi tahlil qilingan. Boborahim Mashrab panteist so‘fiylardan Boyazid Bistomiy, Mansur Halloj, Nasimiylarning she‘rlariga o‘z munosabatini bildiradi hamda ular tasavvufiy dunyoqarashini o‘rganadi.

**Kalit so‘zlar:** Islom, bashariyat, qadriyat, tasavvuf, tafakkur, ilohiyat, Markaziy Osiyo, meros, majoz, Turkiston, Xuroson, Eron, Yaqin Sharq, Halloj, Nasimiy, Bistomiy, Ofoqxoja, Bozor oxund.

Sharq mutasavvif allomalari ma‘naviy boyligi islom olami balki butun bashariyatning ma‘naviyati, madaniyatining rivojlanishiga, umuminsoniy qadriyatlarni boyitishda o‘zining dolzarbligi bilan alohida o‘rin tutmoqda. Zero, mutafakkirlarning ilmiy-ma‘naviy qarashlari, ijtimoiy-falsafiy merosi va ilg‘or diniy-tasavvufiy g‘oyalari yosh avlod ma‘naviy-axloqiy tafakkuri rivojiga ta‘sir etuvchi manba bo‘lib kelmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan tasavvuf tariqatlari, kalom va ijtimoiy-falsafiy tafakkur, ma‘naviy-axloqiy merosning jamiyat tafakkuriga ta‘sirini o‘rganish davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishiga aylandi. “Ulug‘ ajdodlarimizning aql-zakovati va badiiy dahosi bilan yaratilgan noyob asarlar, xususan, matematika, mineralogiya, astronomiya, kimyo, tibbiyot, farmasevtika, me‘morlik, tarix, adabiyot, san‘at, ilohiyot, falsafa va boshqa sohalarga oid manbalar nafaqat bizning xalqimiz, balki jahon ahlining bebaho boyligi hisoblanadi”. [1. Xalq so‘zi. 2018-yil, 15-may]. Boborahim Mashrabning ijodiy faoliyati va ma‘naviy merosi o‘z kelayotgan yosh avlod ongini, sog‘lom e‘tiqodiy tafakkurini shakllantirishda hamda hayotiy pozitsiyasini rivojlantirishda nazariy-metodologik va tarbiyaviy ta‘sirga ega bo‘lmoqda. Shu ma‘noda mutafakkir ijtimoiy dunyoqarashidagi ezgulik, millatparvarlik, tinchlik, do‘stlik, halollik, poklik, nafs tarbiyasi kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlar yoshlarimizda bag‘rikenglik tuyg‘usini oshirishda va milliy o‘zlikni anglashda muhim ilmiy tarbiyaviy meros sifatida uning chuqur mushtarak jihatlarini tadqiq qilish zaruratini toqazo qilmoqda.

Tasavvuf ilmi, uning tariqatlaridagi keng ko‘lamli ta‘limotlar uzoq o‘tmishga ega bo‘lib, ildizlari nihoyat qadimiy davrlarga borib taqaladi. Irfoniy tasavvurlar inson tafakkurining mahsuli bo‘lib, uning o‘sishi bilan birga o‘z rivojlanib kelgan.

Tasavvuf va tasavvuf falsafasi Turkiston, Xuroson va Eron, umuman O‘rta va Yaqin Sharq xalqlari diniy-falsafiy tafakkurining eng muhim va o‘ziga xos qismini tashkil qilgan.

Buyuk tasavvufchilar Ibrohim Adham, Abu Yazid Bistomiy, Mansur al-Xalloy, Abu Bakr ibn Musa al-Vositiy al-Farg‘oniy, as-Sulamiy, Abu Said ibn Abul-xayr al-Mexoniy, Bobo Ko‘hiy, Bobo Tohir, al-Qushayriy, Ansoniy, Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Rumiylar o‘rta asrlarda Turkiston, Xuroson va Eronda yetishib chiqqanlar. Bundan tashqari, bu davrda arablardan yetishib chiqqan Zunnun Misriy, Hasan al-Basriy, Tustariy, Makkiy, Junayd, Muhosibiy, Sari Saqatiy, Xarroz, Qassor, Ibn al-Farid, Ibn al-Arabiy va boshqa mutafakkirlar orifiylik va tasavvuf madaniyatini rivojlantirganlar, uning majoziy falsafasi, badiiyat, darveshlik amaliyoti, an‘analarini, qadriyatlarini shakllantirganlar. [2. 75-bet].

<sup>1</sup> Jizzax davlat pedagogika universiteti, PhD o‘qituvchisi



Tasavvuf orifchilik, zohidlik va darveshlik, go'shanishinlik, rindlik harakatlari sifatida avval boshidanoq, boyishga intilish, adolatsizlik, zo'ravonlik kabi qator ijtimoiy marazlarni qoralovchi, insonlarning Xudo oldidagi tengligi, kambag'al faqir-bechoralarga insoniy munosabatda bo'lish kerakligi to'g'risidagi demokratik xarakterdagi aqidalarga ega ediki, bu tasavvuf va u bilan bog'liq madaniyatga yaqqol ifodalangan umuminsoniy va erkin fikrlik yo'nalishini berar edi. Shuning uchun ham tasavvuf keng xalq ommasi orasida, quyi tabaqalar orasida keng va chuqur ijtimoiy zaminga ega edi.

Biroq, tasavvuf o'zinnig ruhiy kamolotga, ma'rifatga erishish, insoniylik, ezgulik, xalqparvarlikka chaqirish, haqsizlik va zulmni qoralash mayllarini Imom G'azzoliyning yuqoridagi sa'y-harakatlar davrida ham, undan keyin ham susaytirmadi, balki keyingi o'rta asrlarning o'zida Ayn-ul-Quzzot Hamadoniy, Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Ibn al-Arabiy, Najmiddin Kubro, Fariddin Attor, Fahriddin al-Iroqiy, Jaloliddin Rumiylar timsolida yanada avj oldirdi, yuksaklikka ko'tardi.[2.78-bet].

Mashrab she'rlarida ilohiy ishq, ya'ni Xudoga muhabbatini takrorlanmas satrlarda bayon qildi. Buni majoziy shaklda, ya'ni, parvonaning shamga intilishi misolida ko'rsatib beradi. U panteist so'fiylardan Boyazid Bistomiy, Mansur Halloj, Nasimiylarni she'rlarida tilga oladi, ular dunyoqarashini o'rganib, e'tiqod qiladi. Tasavvufning bu yirik vakillari zohid va shayxlarning din hamda shariatga to'g'ri kelmaydigan lo'ttibozligi, ta'magirligi, yolg'onchiligi, firibgarligini fosh qilganliklari uchun umr bo'yi ta'qib etildilar va pirovardida qatl qilindilar.[3.408-409-betlar].

Boborahim Mashrab mumtoz adabiyotimiz buyuk namoyandalarining ilg'or an'analarni o'rganib yirik shoir bo'lib shakllandi, kamolga yetdi. U qoldirgan merosda, birinchi navbatda, ishqiy mavzudagi g'azal-muxammaslardan ana shu an'analarning barakali ta'sirini aniq kuzatish mumkin. Masalan: Mashrab Lutfiyning mashhur:

Sen-san sevarim, xoh inon, xoh inonma,

Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma-

matlaini o'zgartirmay qabul qilib, uni shu o'ynoqi vazn, shu qofiya va radif, shu ruhda davom ettiradi, buyuk ustoziga hurmat hamda san'atini tan olishi belgisi sifatida o'xshatma g'azal yaratadi.

Mashrabning ijtimoiy kamolotida, ayniqsa, Navoiy merosining ijobiy ta'siri katta bo'ldi. Shoirning eng yaxshi asarlarida Navoiy ijodiga xos falsafiylik va dunyosevarlikni ko'ramiz, mazmunning hayotiyliigi, xalqchilligini, vazn ravonligi va o'ynoqiligini qayd etamiz, mavzu tanlash va uni badiiy talqinida yaqinlik va o'xshashlikni uchratamiz. Mashrab muxammaslaridan birida ma'shuqaning uchrashuv haqida oshiqqa va'da bergani, oshiqning tunlarni bedor o'tkazib, intizorlik bilan vasl daqiqalarini kutishi to'g'risida so'z boradi. Ammo, ma'shuqa va'dani buzadi, vafosizlik ko'rsatib uchrashuvga kelmaydi. Muxammas oshiqning ana shu holatdagi hayajonini, his-tuyg'ularini, hijronda yorni kutishdagi nozik kechinmalarini yuksak badiiylik bilan nihoyatda jonli ifodalaydi:

Va'da qildi bir kelay deb, ko'zga uyqu kelmadi,

Termulub yo'lida qoldim, sho'xi badxo' kelmadi,

Necha keldi shum raqiblar, ul pari-ro' kelmadi,

Dardidin o'ldim, tabib, dardimg'a doru kelmadi,

Men shahidi ishq bo'ldim, qatrai suv kelmadi.

O'n ikki band davomida mavzuni shu yuksak saviyada badiiy tahlil etuvchi bu muxammas Mashrab ijodiga Navoiyning barakali ta'sirini ko'rsatuvchi yaqqol misol bo'la oladi. Bunda ulug' shoirning: "Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi" misrasi bilan boshlanuvchi mashhur g'azalidan Mashrab ilhomlanganligi ko'zga ravshan tashlanadi.

Mashrab Navoiy merosidan lirikada jiddiy ijtimoiy mazmun ifodalashni, norozilik ohanglari va tanqidiy fikrlarni ishq-muhabbat mavzuidagi she'rlar jismiga "joylab yuborish" mahoratini ham o'zlashtirdi, ijodiy rivojlantirdi. [4.287-288-betlar].



Boborahim Mashrab tasavvufning Mansur Halloj, Attor, Rumiylar falsafiy dunyoqarashi va gumanistik g'oyalari targ'ib etilgan birinchi oqimiga va uning II-(ikkinchi) tariqat shohobchasi-shayx yoki darveshga shogird tushib, dunyo lazzatlaridan voz kechib, ma'naviy muhabbatni kuylab, Xudoni esga olib, fikr yurituvchi falsafiy diniy oqim-qalandariya oqimiga mansub mutafakkir shoir edi.

Mansur Halloj, Ibrohim Adham, Boyazid Bistomiy, Imomiddin Nasimiy va Boborahim Mashrablar so'fiylik yo'lida o'zligini yo'qotmaganliklari va e'tiqodida qolganliklari uchun ham o'z davrining qurboni bo'lgan edilar.

Mashrab piri komili Hidoyatulloh Ofoqxoja dargohida yetti yil so'fiylik tariqatidan ogoh bo'lib, jami islomiy va dunyoviy ilmlarni egallab bo'lgach, pining marhamati bilan avliyolik darajasiga yetishdi va qalandarlik rutbasini qabul qilib, dunyoga chiqib ketdi. Mashrab piri Ofoqxojaning g'azallarida madh etdi. Har joyda uni eslab, qalbi o'rtanib, e'zozlab g'azallar bitdi.

Boborahim Mashrab mutasavviflar mulla Bozor oxund va Ofoqxojaning mukammal tasavvufiy ta'lim oldi. Pirlar xizmatini ado etib, qiyin, mashaqqatli sinov yo'llarini bosib o'tib, Haqqa yetishdi va tasavvufning yirik vakili sifatida o'z g'azallari va "Mabdai nur", "Kimyo" asarlarida bu haq yo'lni poklik, halollik va Allohga yetishishning yagona vositasi deb tavsifladi.

Mashrab bir shaharda muqim yashamadi, balki shaharma-shahar, yurtma-yurt kezib, tasavvufning buyuk namoyandasi sifatida shuhrat qozondi. O'z g'azallari, "Mabdai nur", "Kimyo" asarlarida bu ta'limotni xalq orasida keng targ'ib qildi.

Mashrab Ofoqxoja Naqshbandiy hazratlariga erishgunicha boshqa umrni yashagan bo'lsa, u zotni topganidan keyin boshqa bir umrni yashadi, desak to'g'riroq bo'ladi. Hikmat buloqlarining shoir dilidan tiliga oqib chiqishi, ijodining gullab-yashnashi, hatto, ixtiyorsiz holda jazba kasb etishida bu tariqat dargohining xizmati ulkandir. Shoir: "Magar vaslingga yetsam piri komilnig duosidin", deb bejiz aytmagan. Bu muborak yo'lning arboblari: "Tasavvuf avliyo bo'lish yo'lidir, natija sifatida iymon bilan olamdan o'tishni ta'minlaydi" [5.58-bet], deganlar. Mashrab ijodida ayni ana shu e'tirof oshkoradir: "Kimki piri topti, davlati dunyovu din keldi..."

Mashrab Pirga qo'l berish nima ekanini, tasavvuf yo'lining sharafi, talab va natijalarini o'z vujudiga guvohligida anglagan orif zotdir.

Mashrab she'rlarida ilohiy ishq, ya'ni Xudoga muhabbatini takrorlanmas satrlarda bayon qilgan. Buni majoziy shaklda, ya'ni, kapalakning shanga intilishi misolida ko'rsatib beradi. U panteistik so'fiylardan Boyazid Bistomiy, Mansur Xalloy, Nasimiylarni she'rlarida tilga oladi, ular dunyoqarashini o'rganib, e'tiqod qiladi. Tasavvufning bu yirik vakillari zo'hir va shayxlarning din hamda shariatga to'g'ri kelmaydigan lo'ttibozligi, ta'magirliigi, yolg'onchiligi, firibgarligini fosh qilganliklari uchun ruhoniylar tomonidan umr bo'yi ta'qib etildilar va pirovardida qatl qilindilar.

Mashrabdagi ilmga, ayniqsa, tasavvufga bo'lgan chuqur muhabbat va ishtiyoqni sezgan mullo Bozor oxund shoir o'z tasavvufiy ilmini to'la kamolotga yetkazishni istab, uni 22 yoshida yanada mashhur va zakovatli eshon Ofoqxoja (vaf. 1693 y.) huzuriga Qashg'arga yuboradi. Mana shu davrdan to umrining oxirigacha Mashrab hayotida sarson-sargardonlik yillari boshlandi. Ofoqxojaga shoir ma'qul bo'lib, yoqib qoladi va unga Mashrab taxallusini beradi (Mashrab so'zi ichish joyi, ichimlik, mazhab, mijoz, tabiat, fe'l-atvor, yo'l, loqaydlik, maslak, g'oya kabi ma'nolarni bildiradi). Yetti yillik og'ir tayyorgarlik, o'zining jismoniy va ruhiy qobiliyatini chiniqtirish tufayli Mashrabga tasavvufiy jozibalik singib bordi. U tasavvuf ilmini to'la egalladi.

Buxorolik faylasufning fikrlari ayni holda barkamol insonni tarbiyalashda ulkan mohiyat kasb etishini ta'kidlamochimiz.

Sharqda azaldan farzand tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Shu bois, har bir ijodkor qayta-qayta bu mavzuga murojaat qilgan. Komil ota-onadan, komil farzand, komil oilalardan komil jamiyat vujudga kelishi inobatga olingan. Turmushning go'zalligi, xalqning farovonligi, yurt tinchligi va osoyishtaligi oilaga bog'liq. Imoni butun, farosati baland, tafakkur olami keng har qanday ota-ona farzandini odobli, aqlli, oqil, dono, bilimli qilib tarbiyalashga harakat qiladi.



Adabiyotda farzand tarbiyasi masalasi hech bir zamon va makonda o'z dolzarbligini, muhim ijtimoiy ahamiyatini yo'qotgan emas. Bu masalani hal qilish chora-tadbirlari, yo'l-yo'riqlari mumtoz adabiyotimiz vakillari tomonidan badiiy tarzda bayon etilgan.

Mashrabi devoni inson surati tahoratigagina emas, balki qalb, ko'ngil tahoratiga ko'p e'tibor beradilar. Chunki odamning tashqi ko'rinishi top toza, silliq bo'lishi, ammo siyrati ilon, chayonlar bilan to'lib toshib yotishi mumkin. Pokiza xonadonga muttasil mehmon kelaverganidek, sof ko'ngil uyiga ham sevgi, sadoqat, mehr-muhabbat, ilhom, rahm-shafqat adolat, to'g'rilik, saxovat, rizolik, mardlik, ilm, shukr, tavba, kamtarlik, sabr, nur otliq ilohiy mehmonlar turg'un bo'lib keladilar.

Odam farzandi o'ziga berilgan sharafiga yarasha Alloh taoloning amrlariga ta'zim va hurmat hamda jamiki maxluqotlarga shafqat bilan yashashi kerak.

Mashrab ulug' mutasavviflardan ta'lim olib, insoniyatga quyidagi tasavvufiy g'oyalarni ta'kidlagan:

Ey odamiyzot, nimaniki yaratish qo'lingdan kelmas ekan, uni o'ldirma. Oddiy ko'ringan chumoliga ham ozor berma. Chunki uni yaratish sening qo'lingdan kelmaydi. Inson qalbini jarohatlama. Chunki qalb Allohning uyidir. Qalbgaga ozor Xudoga ozor. Ota-onangni sev. Ularga ozor berma. Ota-onangni oxirgi nafaslaridan hushyor bo'l. Iymon ayt. O'zing va oxirating uchun bir piri mukammalni top, unga jon fidolik bilan xizmat qil. Ota-onang seni azaliy dargohingdan ayirib yerga tushirgan bo'lsalar, piring-ustozing sening ruhingni tarbiyalab, yana azaliy makoningga chiqarguvchilardir.

Boborahim Mashrabning "Mabdai nur" masnaviysining mundarijasida, jamiyatning turli sohasida mehnat qilib, ziddiyatlarga yuzma-yuz bo'lgan kimsalarning hayoti ijodkor tomonidan badiiy tasvirga olingan bo'lib, hozirgi kunda ham o'z mohiyatini yo'qotgan emas. Asarda davlat arbobidan boshlab, oddiy cho'pon va sut sotuvchi hayotigacha tasvirlangan. Har qanday zamon va makonning o'z komil insonlari bo'ladiki ijodkor ularning hayotini boshqalarga namuna qilib ko'rsatadi. Ularning hayotidan ibrat olib, odob-axloqni o'rganishni targ'ib qiladi. "Shohnoma"da Rustam, "Saddi Iskandariy"da Iskandar, "Farhod va Shirin"da Farhod ijodkorlarning sevimli obrazlari bo'lgan bo'lsa, shoh Boborahim Mashrabning asarida payg'ambarlar, avliyolar hayoti, oddiy dehqon, mehribon ota-ona va jamiyatning boshqa tabaqasida ishlaydigan turli insonlar hayoti namuna qilib ko'rsatilgan. Qalbi pok, vujudi pok, tili bilan dili bir, ilmiga amal qiladigan, har qanday qiyinchiliklarga chidaydigan, bir nazar bilan minglab odamlarni to'g'ri yo'lga soladigan, insonlarning dardini o'zining dardi deb biladigan, xursandchiliklariga doim sherik, haq haqiqat uchun kurashadigan, bironing nafsoniyatiga tegmaydigan, Alloh yodi bilan yashaydigan, buyuk shaxslarning hayoti shoirning diqqat markazidadar. Shuning uchun mazkur asarni chuqur o'rganish, bugungi o'quvchiga uning mohiyatini yetkazish foydadan holi emas. Chunki asarda ajdodlarimizning milliy urf-odatlari bilan birga ming yillik orzu armoni ham o'z aksini topgan.[5.40-41-betlar].

Mutafakkirning "Mabdai nur" asarining falsafiy mohiyati buyuk shaxslarning hayoti va ijodiy faoliyati yana qayta tiklashga yordam beradi.

"Mabdai nur"da bevosita Sharq mashoyixlarining hayoti, raftoru guftorlari, karomatlari bilan bog'liq hikoyatlar o'ttizdan ziyod. Diqqatga molik tomoni shundaki, Boborahim Mashrab kitobda mashriqzaminda shuhrat qozonib, ular haqidagi hikoyatu rivoyatlar asrdan-asrga, kitoblardan kitobga o'tib yurgan Boyazid Bistomiy, Husayn Nuriy, Sufyon Savriy, Zunnun Misriy, Mansur Halloj, Sahl Tustariy, Abdullo Mag'ribiy, Dovud Toyi, Maxdumi A'zam Kosoniy, Junayd Bag'dodiy, Faxriddin Roziy singari allomalar haqidagi rang-barang hikoyatlar bilan bir qatorda keng ilm-adab ahliga kam ma'lum bo'lgan Shayx Nuriddin, Maxdumi Saraxsiy, Ismoil Shomiy, Xoja Akmal, Xoja Abduvali Nishopuriy, Yunus Nishopuriy, Xoja Ilyos Samarqandiy singari tasavvuf arboblari hayoti va faoliyati bilan bog'liq hikoyatlarni ham keltirgan.[6.22-23-betlar].

Ko'rinib turibdiki, mutafakkir Mashrab juda ko'plab shayx va ulamolarning, allomalarning hayoti bilan bog'liq rivoyatlarni ushbu asarga singdirgan.

Ibrohim Adham, Mansur Halloj, Abu Bakr Shibliy, Shams Tabriziy, Jaloliddin Rumiy, Boyazid Bistomiy, Attor, Nasimiy, Kubro, Naqshband, Ofoqxoja, Xoja Ahror kabi bu ulug' zotlarni Mashrab o'zining g'oyibona piri komili deb qabul qiladi. Ularni havas bilan takror va takror tilga oladi, alqaydi



ularga o‘zini qiyos etadi. Bu muborak zotlar bilan bog‘liq bayt va g‘azallar ham Mashrab dunyosining turli qarashlarini namoyon etadi.

**Abadiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida” qarori / Xalq so‘zi. 2018 yil, 15 may.
2. Yusupov E.Yu.ning umumiy tahriri ostida. Falsafa (o‘quv qo‘llanma). –T.: “Sharq”, 1999. –B. 75.
3. Nazarov Q. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. 1 kitob. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004.–B. 408-409.
4. Xayrullayev M.M. Ma’naviyat yulduzlari. –T.: “Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti”, 1999. –B. 287-288.
5. Mahmud As‘ad Jo‘shon, “Islom, tasavvuf va axloq”. Tarjimon Sayfiddin Sayfulloh. –T.:“Istiqlol”, 1999. –B. 58.
6. Vohidov Rahim, Hamidjon Homidiy. Himmat inoyatsiz bo‘lmas. Olimi nuktadon o‘zum. To‘plam. –T.: 2006. –B. 22-23.

